2026-yil
9(1)-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

UDK 159.922.8:004.738.5

Ummatova Sitora Shavkatullayevna,
Samarqand davlat universiteti dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonova Aziza Davlatovna,
tadqiqotchi

O‘SMIRLAR AXBOROT XAVFSIZLIGIDA KIBERHUJUM VA KIBERBULLING FENOMENLARINI PSIXOLOGIK TAHLIL QILISH

Annotatsiya. Maqolada o‘smirlarning raqamli muhitdagi xavfsizligiga ta’sir etuvchi kiberhujum va kiberbulling muammolari tahlil qilingan. Tadqiqotning dolzarbligi raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi natijasida o‘smirlarning turli kiberxavflarga duch kelish ehtimolining ortib borishi bilan izohlanadi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, ilmiy manbalarni o‘rganish va nazariy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Natijalar kiberhujumlar asosan axborot xavfsizligiga, kiberbulling esa o‘smirlarning emotsional holati va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Shuningdek, psixologik immunitetni shakllantirishning asosiy omillari sifatida tanqidiy fikrlash, emotsional intellekt, kiber-gigiyena va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati asoslab berildi. Muallif tomonidan kiberhujum va kiberbullingga qarshi psixologik himoya strategiyalari tizimlashtirilib, o‘smirlarning raqamli xavfsizligini ta’minlashga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: kiberhujum, kiberbulling, psixologik immunitet, emotsional intellekt, kiber-gigiyena, raqamli xavfsizlik, o‘smirlar, tanqidiy fikrlash.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФЕНОМЕНОВ КИБЕРАТАК И КИБЕРБУЛЛИНГА В СИСТЕМЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. В статье проанализированы проблемы кибератак и кибербуллинга, влияющие на безопасность подростков в цифровой среде. Актуальность исследования обусловлена ростом распространённости цифровых технологий и увеличением рисков столкновения подростков с различными киберугрозами. В работе использованы методы сравнительного анализа, изучения научных источников и теоретического обобщения. Результаты показали, что кибератаки преимущественно угрожают информационной безопасности, тогда как кибербуллинг оказывает негативное влияние на эмоциональное состояние и социальную адаптацию подростков. Обоснована значимость критического мышления,

эмоционального интеллекта, кибергигиены и социальной поддержки в формировании психологического иммунитета. Научный вклад автора заключается в систематизации стратегий психологической защиты от киберугроз и разработке практических рекомендаций по обеспечению цифровой безопасности подростков.

Ключевые слова. кибератака, кибербуллинг, психологический иммунитет, эмоциональный интеллект, кибергигиена, цифровая безопасность, подростки, критическое мышление.

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF CYBERATTACKS AND CYBERBULLYING IN THE CONTEXT OF ADOLESCENT INFORMATION SECURITY

Abstract. This article examines the problems of cyberattacks and cyberbullying affecting adolescents' safety in the digital environment. The relevance of the study is determined by the rapid spread of digital technologies and the growing exposure of adolescents to cyber threats. The research is based on comparative analysis, review of scientific literature, and theoretical generalization. The findings indicate that cyberattacks mainly threaten information security, whereas cyberbullying negatively affects adolescents' emotional well-being and social adaptation. The study highlights the importance of critical thinking, emotional intelligence, cyber hygiene, and social support in developing psychological immunity. The scientific contribution of the author lies in systematizing psychological protection strategies against cyber threats and proposing practical recommendations for improving adolescents' digital safety.

Keywords: cyberattack, cyberbullying, psychological immunity, emotional intelligence, cyber hygiene, digital safety, adolescents, critical thinking.

Kirish. So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi o‘smirlar hayotida raqamli muhitning ahamiyatini sezilarli darajada oshirdi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar ta'lim olish, muloqot qilish hamda axborot almashish uchun keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga, yangi turdagi xavf va tahdidlarning paydo bo‘lishiga ham sabab bo‘lmoqda. Shu bois o‘smirlarning raqamli makondagi xavfsizligini ta'minlash zamonaviy psixologiya va pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Ko‘pincha raqamli muhitda yuzaga keladigan barcha salbiy holatlar umumiy tarzda kiberxavfsizlik muammolari sifatida talqin qilinadi. Biroq amaliy va nazariy jihatdan qaralganda, internet orqali namoyon bo‘ladigan tahdidlar mazmuni hamda ta'sir mexanizmlariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Xususan, kiberhujumlar asosan texnik xarakterga ega bo‘lib, foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari, akkauntlari yoki elektron resurslariga zarar yetkazishga qaratiladi. Kiberbulling esa

internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxsga nisbatan muntazam ruhiy bosim, tahqirlash, kamsitish yoki ta'qib ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Mazkur ikki hodisa o‘smir shaxsiga turlicha ta'sir ko‘rsatadi. Kiberhujumlar ko‘proq axborot xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarni yuzaga keltirsa, kiberbulling o‘smirning emotsional holati, o‘z-o‘zini baholashi va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir etishi mumkin. Shu sababli ularni oldini olish va bartaraf etish usullari ham o‘zaro farqlanadi. Kiberhujumlarga qarshi kurashishda texnik savodxonlik va raqamli xavfsizlik ko‘nikmalari muhim ahamiyat kasb etsa, kiberbullingning oldini olishda psixologik barqarorlik, emotsional intellekt va sog‘lom kommunikativ munosabatlarni rivojlantirish ustuvor hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi kiberhujum va kiberbulling tushunchalarining o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilish, ularning o‘smirlar psixologik xavfsizligiga ta'sirini yoritish hamda mazkur tahdidlarga qarshi samarali himoya mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda o‘smirlarning kiberxavflarga nisbatan psixologik zaifligini belgilovchi omillar tizimlashtirildi hamda kiberhujum va kiberbullingga qarshi himoya mexanizmlari kognitiv, emotsional va ijtimoiy-psixologik komponentlar asosida guruhlashtirildi. Shuningdek, raqamli muhitda o‘smirlarning psixologik immunitetini shakllantirishga qaratilgan konseptual yondashuv taklif etildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kiberhujum va kiberbulling: psixologik chegaralar hamda himoya mexanizmlari. O‘smirlarning raqamli makondagi xavfsizligini o‘rganishda kiberhujum va kiberbulling tushunchalarini bir-biridan ajratib tahlil qilish muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Mazkur hodisalar internet muhiti bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ularning maqsadi, namoyon bo‘lish shakllari hamda shaxsga ta’sir etish mexanizmlari o‘zaro farqlanadi. Shu sababli ularga qarshi profilaktika va himoya choralarini ishlab chiqishda mazkur farqlarni hisobga olish zarur.

Kiberhujum, avvalo, axborot tizimlari, qurilmalar yoki foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlariga zarar yetkazish, ularni o‘g‘irlash yoki noqonuniy foydalanishga qaratilgan harakatlar majmuasini anglatadi. Bunday tahdidlar fishing, zararli dasturlar, akkauntlarni buzib kirish, shaxsiy ma’lumotlarni qo‘lga kiritish va boshqa texnik usullar orqali amalga oshiriladi. Kiberhujumlarning asosiy maqsadi moddiy manfaat ko‘rish, ma’lumotlarni nazorat qilish yoki foydalanuvchi faoliyatiga noqonuniy ta’sir o‘tkazishdan iborat bo‘ladi.

Kiberbulling esa ko‘proq shaxsning ruhiy holati va ijtimoiy mavqeiga salbiy ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan tajovuzkor xatti-harakatlar majmuasidir. U internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali haqorat qilish, tahqirlash, mazax qilish, yolg‘on ma’lumotlar tarqatish yoki shaxsni virtual jamoadan chetlashtirish ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Kiberbullingning asosiy xususiyati shundaki, uning oqibatlari ko‘pincha psixologik darajada namoyon bo‘lib, o‘smirning o‘ziga bo‘lgan ishonchi

pasayishi, xavotir va depressiv holatlarning kuchayishi, hatto ijtimoiy moslashuv jarayonlarining izdan chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, mazkur ikki hodisa ayrim hollarda o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘lishi ham mumkin. Masalan, kiberhujum natijasida qo‘lga kiritilgan shaxsiy ma’lumotlardan keyinchalik kiberbulling maqsadlarida foydalanilishi ehtimoldan xoli emas. Shu bois o‘smirlarning raqamli xavfsizligini ta’minlashda texnik himoya vositalari bilan bir qatorda psixologik profilaktika, raqamli savodxonlik va xavfsiz internet madaniyatini shakllantirishga ham alohida e’tibor qaratish talab etiladi.

A.N. Nurmatov o‘smirlarning virtual muloqot jarayonidagi zaif tomonlarini tahlil qilar ekan, yolg‘on yoki tekshirilmagan axborotlarni qabul qilishga moyillik hamda guruh ta’sirining kuchayishi kabi omillarga alohida e’tibor qaratadi. Ushbu nuqtai nazardan qaralganda, kiberhujumlar ko‘proq foydalanuvchining texnik bilimlari va axborot bilan ishlash madaniyati bilan bog‘liq bo‘lsa, kiberbulling shaxsning emotsional barqarorligi, kommunikativ ko‘nikmalari hamda ijtimoiy moslashuv darajasi bilan chambarchas aloqador hisoblanadi.

A.M. Husanovning fikricha, o‘smirlarda raqamli tahdidlarga qarshi turish qobiliyati psixologik himoya mexanizmlarining shakllanganlik darajasi bilan belgilanadi. Biroq kiberhujumlar va kiberbulling holatlarida ushbu mexanizmlar turli yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi.

Xorijiy tadqiqotlarda ham kiberbullingning o‘smirlar ruhiy rivojlanishiga ta’siri keng yoritilgan. Xususan, D. Olweus tengdoshlar tomonidan muntazam ravishda amalga oshiriladigan salbiy xatti-harakatlar o‘smirlarning ruhiy holati va ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bunday ta’sirlar uzoq davom etganda shaxsda ishonchsizlik, xavotir va ijtimoiy chekinish kabi holatlar yuzaga kelishi mumkin.

P.K. Smith va hamkorlari kiberbullingni internet va zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshiriladigan tajovuzkor munosabatlarning yangi ko‘rinishi sifatida baholaydilar. Tadqiqotchilar virtual muhitning o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, axborotning tez tarqalishi va keng auditoriyaga yetib borishi salbiy ta’sirlarning kuchayishiga olib kelishini qayd etadilar.

J.W. Patchin va S. Hinduja o‘z tadqiqotlarida kiberbullingning o‘smirlarning emotsional holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini alohida ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, internet orqali amalga oshiriladigan muntazam tahqirlash va bosim holatlari o‘smirlarda yolg‘izlik hissi, o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi hamda ruhiy zo‘riqishning ortishiga sabab bo‘lishi mumkin.

R.M. Kowalski va hamkorlari esa kiberbullingning oldini olishda oila, maktab va ijtimoiy muhitning o‘rni muhim ekanligini qayd etadilar. Ularning fikricha, o‘smirlarni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit mavjud bo‘lganda, ular raqamli makonda uchraydigan salbiy ta’sirlarga nisbatan barqarorroq munosabat bildira oladilar.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar kiberhujum va kiberbulling muammosini o‘rganishda psixologik, ijtimoiy hamda pedagogik omillarni kompleks tarzda tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotda muammoni yoritish uchun tegishli metodologik yondashuvlardan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda o‘smirlarning raqamli muhitdagi psixologik xavfsizligi masalasi nazariy jihatdan yoritildi. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar hamda zamonaviy tadqiqotlar mazmunan tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosini ilmiy manbalarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari tashkil etdi. Ushbu metodlar yordamida kiberhujum va kiberbulling tushunchalarining mazmun-mohiyati, ularning o‘smirlar psixologik xavfsizligiga ta’siri hamda himoyalanish omillari o‘rganildi.

Qiyosiy tahlil asosida kiberhujum va kiberbullingning umumiy hamda farqli jihatlari solishtirilib, ularning ta’sir mexanizmlaridagi o‘ziga xos xususiyatlar ajratib ko‘rsatildi. Shuningdek, o‘smirlarning kiberxavflarga nisbatan zaifligini kuchaytiruvchi psixologik va ijtimoiy omillar tizimlashtirildi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv tamoyiliga tayanildi. Ushbu yondashuv kiberhujum va kiberbulling fenomenlarini psixologik, ijtimoiy va axborot xavfsizligi omillari bilan o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqish imkonini berdi. Muammoni chuqurroq tahlil qilish maqsadida induktiv va deduktiv yondashuvlardan ham foydalanildi.

Olingan nazariy ma’lumotlarni umumlashtirish asosida o‘smirlarda psixologik immunitetni shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy omillar hamda himoya strategiyalari belgilandi. Tadqiqot natijalari o‘smirlarning raqamli xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Nazariy manbalar hamda ilmiy adabiyotlar tahlili kiberhujum va kiberbullingning bir xil raqamli muhitda sodir bo‘lishiga qaramay, ularning mazmuni, ta’sir obyekti, oqibatlari va himoya mexanizmlari jihatidan sezilarli farqlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu farqlarni tizimli ravishda yoritish maqsadida kiberhujum va kiberbullingning qiyosiy tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Kiberhujum va kiberbullingning qiyosiy tavsifi

Taqqoslash mezoni	Kiberhujum	Kiberbulling
Mohiyati	Axborot tizimlari, qurilmalar yoki shaxsiy ma’lumotlarga qaratilgan noqonuniy ta’sir	Shaxsga nisbatan internet orqali amalga oshiriladigan ruhiy bosim, tahqirlash yoki ta’qib
Asosiy maqsad	Ma’lumotlarni qo‘lga kiritish, o‘zgartirish yoki ulardan noqonuniy foydalanish	Jabrlanuvchining ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatish
Ta’sir obyekti	Shaxsiy ma’lumotlar, akkauntlar va axborot resurslari	Shaxsning emotsional holati, o‘z-o‘zini baholashi va ijtimoiy

		munosabatlari
Namoyon bo'lish shakllari	Fishing, zararli dasturlar, akkauntlarni buzish, ma'lumotlarni o'g'irlash	Masxaralash, haqoratlash, tahdid qilish, yolg'on ma'lumot tarqatish
Oqibatlari	Ma'lumotlarning yo'qolishi, moliyaviy zarar, maxfiylikning buzilishi	Stress, xavotir, depressiv holatlar, ijtimoiy yakkalanish
Himoya omillari	Kuchli parollar, ikki bosqichli autentifikatsiya, kiber-gigiyena, texnik savodxonlik	Emotsional intellekt, psixologik barqarorlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash
Profilaktika choralari	Axborot xavfsizligi qoidalariga rioya qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish	Sog'lom muloqot ko'nikmalarini shakllantirish va psixologik yordamni kuchaytirish
Yetakchi himoya mexanizmi	Kognitiv va texnik himoya	Emotsional va ijtimoiy-psixologik himoya

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, kiberhujum va kiberbulling internet muhitida sodir bo'lishiga qaramay, ularning mazmuni, ta'sir obyekti hamda oqibatlari sezilarli darajada farqlanadi. Kiberhujumlar asosan axborot resurslari va shaxsiy ma'lumotlarga tahdid solsa, kiberbulling shaxsning psixologik farovonligi va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mazkur tahdidlarga qarshi kurashishda ham turli himoya mexanizmlaridan foydalanish zarur bo'ladi: kiberhujumlarda texnik va kognitiv ko'nikmalar ustuvor ahamiyat kasb etsa, kiberbulling holatlarida emotsional barqarorlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash muhim omil hisoblanadi.

Kiberhujumlar, xususan fishing, zararli dasturlar yoki ma'lumotlarni noqonuniy egallashga qaratilgan urinishlarga qarshi kurashishda kognitiv va texnik ko'nikmalar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bunda shubhali manbalarni aniqlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash, xavfsiz parollardan foydalanish hamda internet resurslaridan oqilona foydalanish kabi kompetensiyalar muhim himoya omillari sifatida namoyon bo'ladi.

Kiberbulling holatlarida esa himoya asosan emotsional va ijtimoiy-psixologik omillarga tayanadi. O'smirning o'z-o'zini baholash darajasi, stressga bardoshliligi, muloqot madaniyati hamda salbiy ta'sirlarga nisbatan psixologik barqarorligi uning kiberbulling oqibatlariga qarshi turish imkoniyatlarini belgilaydi. Shu bois bunday vaziyatlarda faqat texnik cheklovlar yoki bloklash vositalari yetarli bo'lmay, psixologik qo'llab-quvvatlash va emotsional resurslarni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega.

O'smirlarning kiberxavflarga nisbatan psixologik zaiflik omillari. Raqamli texnologiyalarning kundalik hayotga tobora chuqur kirib borishi o'smirlarning internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish faolligini sezilarli darajada oshirmoqda. Virtual muhit ta'lim olish, muloqot qilish va shaxsiy rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga, turli kiberxavflarning yuzaga kelishiga ham zamin yaratadi. Biroq barcha o'smirlar ham ushbu xavflarga bir xil

darajada duch kelmaydi. Ayrim yoshlar kiberhujumlar yoki kiberbulling holatlariga nisbatan nisbatan barqaror munosabat bildirsalar, boshqalari bunday vaziyatlarning salbiy ta'siriga tezroq berilib ketadilar. Bu holat o'smirlarning individual-psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhiti va rivojlanish bosqichlari bilan chambarchas bog'liqdir.

O'smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va ziddiyatli rivojlanish bosqichlaridan biri hisoblanadi. Mazkur davrda shaxsning o'zini anglash jarayoni faollashadi, mustaqillikka intilish kuchayadi, tengdoshlar fikrining ahamiyati ortadi hamda emotsional sohada keskin o'zgarishlar kuzatiladi. Aynan shu omillar o'smirlarning raqamli muhitdagi turli tahdidlar oldida nisbatan zaif bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'smirlarning kiberxavflarga nisbatan zaifligini kuchaytiruvchi omillardan biri emotsional beqarorlik hisoblanadi. Ushbu yosh davrida hissiyotlarning keskin namoyon bo'lishi, kayfiyatning tez-tez o'zgarishi va stressli vaziyatlarga yuqori sezuvchanlik kuzatiladi. Natijada internet orqali bildirilgan salbiy fikrlar, tanqidlar yoki haqoratli xabarlar o'smir tomonidan haddan tashqari og'riqli qabul qilinishi mumkin. Kiberbulling holatlarida aynan emotsional beqarorlik xavotir, tushkunlik va o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib keluvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, o'z-o'zini baholash darajasining yetarlicha shakllanmaganligi ham muhim xavf omili hisoblanadi. O'smirlik davrida shaxs o'z qadr-qimmatini ko'pincha atrofdagilarning baholari orqali aniqlashga harakat qiladi. Ijtimoiy tarmoqlardagi layklar soni, izohlar, kuzatuvchilar miqdori yoki tengdoshlarning munosabati ayrim hollarda o'smirning o'ziga bergan bahosiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli virtual makonda salbiy munosabatlarga duch kelgan o'smirlar buni shaxsiy muvaffaqiyatsizlik yoki o'z qiymatining pasayishi sifatida qabul qilishlari mumkin.

Kiberxavflarga moyillikni kuchaytiruvchi yana bir omil tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining yetarli rivojlanmaganligidir. Internet tarmog'ida tarqatilayotgan axborotlarning katta qismi ishonchli manbalarga asoslanmagan bo'lishi mumkin. Tajriba va hayotiy bilimlarning cheklanganligi sababli ayrim o'smirlar yolg'on xabarlar, manipulyativ axborotlar yoki firibgarlik sxemalarini o'z vaqtida ajrata olmaydilar. Bu esa ularning fishing, ijtimoiy muhandislik va boshqa turdagi kiberhujumlarga uchrash ehtimolini oshiradi.

Tengdoshlar ta'siri ham o'smirlarning raqamli muhitdagi xulq-atvorini belgilovchi muhim omillardan biridir. O'smirlar ko'pincha guruh tomonidan qabul qilinishga intiladilar va tengdoshlari tomonidan rad etilishdan qo'rqadilar. Shu sababli ular ba'zan xavfli internet platformalarida ro'yxatdan o'tish, noma'lum shaxslar bilan muloqot qilish yoki shaxsiy ma'lumotlarini oshkor etish kabi xavfli harakatlarni amalga oshirishlari mumkin. Bundan tashqari, ayrim hollarda tengdoshlar bosimi o'smirning kiberbulling ishtirokchisiga aylanishiga ham sabab bo'lishi mumkin.

Oilaviy muhit ham o‘smirlarning kiberxavflarga nisbatan barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalar bilan ochiq va ishonchli muloqotning mavjudligi o‘smirga murakkab vaziyatlarda yordam so‘rash imkonini beradi. Aksincha, oiladagi nizolar, emotsional sovuqlik yoki nazoratning haddan tashqari sustligi bolalarning internetdagi xavfli vaziyatlarga mustaqil va tayyorgarliksiz duch kelish ehtimolini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ota-onalar bilan samarali muloqotga ega bo‘lgan o‘smirlar kiberbulling va kiberhujum oqibatlarini yengishda nisbatan yuqori psixologik barqarorlikni namoyon etadilar.

Raqamli savodxonlik darajasining pastligi ham kiberxavflarga nisbatan zaiflikning muhim sabablaridan biri hisoblanadi. Internetdan faol foydalanayotgan ko‘plab o‘smirlar axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha amaliy tajribaga ega bo‘lsalar-da, kiberxavfsizlik qoidalarini yetarli darajada bilmasliklari mumkin. Kuchli parollardan foydalanmaslik, shaxsiy ma’lumotlarni oshkor qilish, noma’lum havolalarni ochish yoki shubhali ilovalarni yuklab olish kabi xatti-harakatlar kiberhujumlar uchun qulay sharoit yaratadi.

Bundan tashqari, internetga haddan tashqari bog‘lanib qolish holati ham o‘smirlarning psixologik zaifligini kuchaytiradi. Virtual muloqotning real munosabatlardan ustun qo‘yilishi, ijtimoiy tarmoqlarda uzoq vaqt qolish va internetdagi baholarga ortiqcha ahamiyat berish shaxsning emotsional barqarorligini susaytirishi mumkin. Natijada o‘smir virtual muhitda yuzaga keladigan har qanday salbiy vaziyatni o‘ta keskin qabul qiladi va undan uzoq vaqt davomida ruhiy noqulaylik his etadi.

Shunday qilib, o‘smirlarning kiberxavflarga nisbatan zaifligi ko‘plab psixologik, ijtimoiy va individual omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Emotsional beqarorlik, o‘z-o‘zini baholashning yetarli darajada shakllanmaganligi, tanqidiy fikrlashning rivojlanmaganligi, tengdoshlar ta’siri, oilaviy muhit xususiyatlari hamda raqamli savodxonlik darajasi ushbu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur omillarni chuqur o‘rganish va hisobga olish o‘smirlarni kiberhujumlar hamda kiberbullingdan himoya qilishga qaratilgan samarali profilaktik dasturlarni ishlab chiqish uchun zarur ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli muhitda psixologik immunitetni shakllantirish strategiyalari

Zamonaviy raqamli makonda o‘smirlarning xavfsizligini ta’minlash masalasi faqat texnik himoya vositalari yoki internetdan foydalanishni cheklash bilan hal etilmaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida kiberhujumlar, kiberbulling, onlayn manipulyatsiya va turli psixologik tahdidlarning shakllari ham murakkablashib bormoqda. Shu sababli o‘smirlarni raqamli muhitdagi xavf-xatarlardan himoya qilishda kompleks yondashuvni qo‘llash zarur. Bunda nafaqat kiberxavfsizlik bo‘yicha texnik bilimlarni shakllantirish, balki yoshlarning tanqidiy fikrlashi, axborotni tahlil qila olish qobiliyati, emotsiyalarni boshqarish ko‘nikmalari hamda psixologik barqarorligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, kiberbulling holatlarida o‘smirning emotsional holati, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va stressga chidamliligi muhim himoya

omili sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ota-onalar, pedagoglar va psixologlarning hamkorlikdagi faoliyati orqali o‘smirlarda mas’uliyatli raqamli xulq-atvor madaniyatini shakllantirish mumkin. Natijada texnik xavfsizlik choralarini psixologik tayyorgarlik va emotsional kompetensiyalar bilan uyg‘unlashtirish raqamli makonda xavfsiz va sog‘lom muhitni yaratishning muhim sharti hisoblanadi.

O‘smirlarda psixologik immunitetni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat.

Birinchidan, tanqidiy fikrlash va axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, internetda tarqalayotgan ma’lumotlarni tanqidiy baholamasdan qabul qilish turli manipulyativ ta’sirlarga duchor bo‘lish xavfini oshiradi. Shu sababli o‘smirlarni axborot manbalarining ishonchliligini tekshirishga, xabarlarning maqsadi va mazmunini tahlil qilishga o‘rgatish muhim hisoblanadi. Mazkur ko‘nikmalar fishing, yolg‘on axborotlar va boshqa kiberxavflarning oldini olishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, emotsional intellektni rivojlantirish kiberbullingning salbiy oqibatlarini kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. O‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan o‘smirlar virtual muhitdagi salbiy munosabatlar va provokatsiyalarga nisbatan bardoshlilikni namoyon etadi. Shuningdek, o‘z-o‘zini baholashning barqarorligi shaxsning ijtimoiy tarmoqlardagi baholar, izohlar yoki reaksiyalarga haddan tashqari bog‘lanib qolishining oldini oladi. Natijada o‘smir salbiy axborotlarni shaxsiy qadriyatlariga tahdid sifatida emas, balki tashqi omil sifatida qabul qilishni o‘rganadi.

Uchinchidan, psixologik himoya mexanizmlarini oilaviy va ta’lim muhitida qo‘llab-quvvatlash zarur. Bunday yondashuv o‘smirning nafaqat individual darajada, balki ijtimoiy muhit yordamida ham kiberxavflarga qarshi kurashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Oila a’zolari, pedagoglar va tengdoshlarning qo‘llab-quvvatlashi o‘smirning psixologik barqarorligini mustahkamlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, o‘smirlarda psixologik immunitetni shakllantirish raqamli muhitda uchraydigan tahdidlarga qarshi samarali himoya tizimini yaratishning muhim shartlaridan biridir. Mazkur immunitetning rivojlanishi kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillarning o‘zaro uyg‘unligi asosida amalga oshadi. Shu bois psixologik immunitetni shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy strategiyalarni tizimli ravishda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ushbu strategiyalar 2-jadvalda umumlashtirilgan.

2-jadval

O‘smirlarda psixologik immunitetni shakllantirish strategiyalari

Strategiya	Mazmuni	Qo‘llanilish sohasi	Kutilayotgan natija
Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish	Axborotni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini	Kiberhujumlar va dezinformatsiya	Axborot xavfsizligining oshishi

	shakllantirish		
Emotsional intellektni rivojlantirish	Emotsiyalarni boshqarish va stressga bardoshlilikni kuchaytirish	Kiberbulling	Psixologik barqarorlikning ortishi
Kiber-gigiyena ko‘nikmalarini shakllantirish	Internetdan xavfsiz foydalanish qoidalariga rioya qilish	Kiberhujumlar	Shaxsiy ma’lumotlar himoyasining kuchayishi
Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash	Oila, maktab va tengdoshlar yordamini kuchaytirish	Kiberhujum va kiberbulling	Himoya resurslarining kengayishi
Empatiya va kommunikativ ko‘nikmalar	Sog‘lom muloqot va o‘zaro hurmatni rivojlantirish	Kiberbulling	Mojarolar va ruhiy bosimning kamayishi

2-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarda psixologik immunitetni shakllantirish bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillarning uyg‘un rivojlanishini talab etadi. Tanqidiy fikrlash, emotsional intellekt, kiber-gigiyena, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va empatiya kabi komponentlarni amaliyotga tatbiq etish o‘smirlarning kiberhujumlar hamda kiberbullingga nisbatan barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu strategiyalar orasida kiber-gigiyena ko‘nikmalarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunga noma’lum manbalardan kelgan xabarlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va internetdan xavfsiz foydalanish qoidalariga rioya etish kiradi. Mazkur ko‘nikmalar o‘smirlarning raqamli xavfsizligini ta’minlashda muhim profilaktik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish ham kiberbullingning oldini olishda samarali omillardan biridir. Boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish o‘smirlarda sog‘lom muloqot madaniyatini shakllantiradi. Shu bilan birga, kiberbullingga duch kelgan o‘smir vaziyatning sabablarini to‘g‘ri baholash orqali yuzaga kelgan salbiy holatni o‘zining shaxsiy kamchiligi sifatida qabul qilmaslikni o‘rganadi.

O‘tkazilgan nazariy tahlillar natijasida o‘smirlarning kiberxavflarga nisbatan zaifligini belgilovchi asosiy omillar emotsional beqarorlik, tanqidiy fikrlashning yetarli rivojlanmaganligi, tengdoshlar ta'siri, oilaviy muhit va raqamli savodxonlik darajasi ekanligi aniqlandi.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalarning kundalik hayotga keng kirib borishi o‘smirlar oldida yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda yangi xavf va tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, kiberhujumlar va kiberbulling o‘smirlarning axborot hamda psixologik

xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar natijasida kiberhujum va kiberbullingning mazmuni, maqsadi hamda oqibatlari jihatidan bir-biridan sezilarli darajada farq qilishi aniqlandi. Kiberhujumlar ko'proq axborot resurslari va shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligiga tahdid tug'dirsa, kiberbulling o'smirlarning emotsional holati, o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mazkur tahdidlarga qarshi kurashishda yagona yondashuv emas, balki ularning xususiyatlaridan kelib chiqadigan mos himoya choralarini qo'llash muhim hisoblanadi.

Tadqiqot davomida o'smirlarning kiberxavflarga nisbatan zaifligi bir qator psixologik va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi aniqlandi. Emotsional beqarorlik, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, tengdoshlar ta'siri, oilaviy muhit va raqamli savodxonlik darajasi ushbu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Ushbu omillarni hisobga olish kiberxavflarning oldini olishga qaratilgan profilaktik ishlarni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Shuningdek, o'smirlarda psixologik immunitetni shakllantirish raqamli muhitdagi tahdidlarga qarshi kurashishning muhim shartlaridan biri ekanligi aniqlandi. Tanqidiy fikrlash, emotsional intellekt, kiber-gigiyena ko'nikmalari, empatiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning rivojlanganligi o'smirlarga turli kiberxavflarga nisbatan ongli va barqaror munosabatni shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari kiberxavfsizlik masalasini faqat texnik vositalar yordamida hal etish yetarli emasligini ko'rsatdi. Oila, ta'lim muassasalari, psixologlar va jamiyatning hamkorlikdagi faoliyati o'smirlarning raqamli muhitdagi xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda kiberhujum va kiberbullingga qarshi himoya mexanizmlari kognitiv, emotsional hamda ijtimoiy-psixologik komponentlar asosida tizimlashtirildi. Shuningdek, o'smirlarda psixologik immunitetni shakllantirishga qaratilgan konseptual yondashuv taklif qilindi.

Amaliy tavsiyalar sifatida umumta'lim muassasalarida kiberxavfsizlik va raqamli madaniyatga oid treninglarni yo'lga qo'yish, ota-onalar uchun ma'rifiy seminarlar tashkil etish, ta'lim muassasalari psixologlari tomonidan kiberbulling profilaktikasiga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish hamda o'smirlarda tanqidiy fikrlash va emotsional barqarorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashg'ulotlarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Kelgusida mazkur yo'nalishda o'smirlarning psixologik immunitetini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar samaradorligini empirik jihatdan o'rganish hamda turli ijtimoiy guruhlardagi yoshlarning kiberxavflarga munosabatini tahlil qilish istiqbolli tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni. – O‘RQ-764-son. – 15.04.2022.
2. Olweus D. Bullying at School: What We Know and What We Can Do. – Oxford: Blackwell Publishers, 1993. – 140 p.
3. Smith P.K., Mahdavi J., Carvalho M., Fisher S., Russell S., Tippett N. Cyberbullying: Its nature and impact in secondary school pupils // Journal of Child Psychology and Psychiatry. – 2008. – Vol. 49. – No. 4. – P. 376–385.
4. Kowalski R.M., Limber S.P., Agatston P.W. Cyberbullying: Bullying in the Digital Age. – 2nd ed. – Malden: Wiley-Blackwell, 2012. – 280 p.
5. Patchin J.W., Hinduja S. Bullying Beyond the Schoolyard: Preventing and Responding to Cyberbullying. – 2nd ed. – Thousand Oaks: Sage Publications, 2015. – 232 p.
6. Willard N. Cyberbullying and Cyberthreats: Responding to the Challenge of Online Social Aggression, Threats, and Distress. – Champaign: Research Press, 2007. – 320 p.
7. Хломов К.Д., Давыдов Д.Г., Бочавер А.А. Кибербуллинг в опыте российских подростков // Психология и право. – 2019. – Т. 9. – № 2.
8. Ермолова Т.В., Савицкая Н.В. Буллинг как групповой феномен: исследование буллинга в Финляндии и скандинавских странах за последние 20 лет // Современная зарубежная психология. – 2015. – Т. 4. – № 1. – С. 65–90.
9. Рахимова И.И. Талабаларда эмоционал зўриқишнинг психологик сабаблари // Международный педагогический портал «Солнечный свет». – 2022. – 01 февр.
10. Clark C.M., Werth L., Ahten S.M. Cyber-bullying and incivility in the online learning environment: Part One – addressing faculty and student perceptions // Nurse Educator. – 2012. – Vol. 37. – No. 4. – P. 150–156.
11. Бачинина Е.Д. Механизмы профилактики кибербуллинга в школьной среде на примере МАОУ СОШ №10 г. Екатеринбурга: магистерская диссертация. – Екатеринбург, 2023. – 84 с.
12. Amonxonova Y. O‘smir davrida uchraydigan kiberbulling turlari va ularning psixologik xususiyatlari // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2026. – T. 4. – № 1. – DOI: 10.5281/zenodo.18443210.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694